



G.T.Cho'lliyeva

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

## OHANG BOG'LOVCHI VOSITA (MI?)

**ANNOTATSIYA:** Odamlar bilan samarali muloqot qilish nutq ohangini to'g'ri idrok etish, talqin qilish va takrorlash qobiliyatiga asoslanadi. Uning haddan tashqari rang-barangligi yoki muloqot vaziyatiga mos kelmaslik, nutq maqsadiga bog'liq bo'lмаган со'zlarga urg'u berish aloqa maqsadining amalga oshmasligiga sabab bo'ladigan vositalardan biridir. Omma oldiga chiqishda notiq nutqining zaif yoki monoton bo'lishi nutqning zerikarli va qiziqarsiz bo'lishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, muloqot jarayonida ohangning o'rni beqiyos. Bulardan tashqari ohangning sintaktik birlıklarni shakllantirish va bog'lashda ham muhim vazifalari borki, ushbu maqolada shu xususiyatlari tahlil qilinadi. Aniq va o'rinni misollar vositasida ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** ohang, intonatsiya, sintaksis, gap, bog'lovchi, yordamchi so'zlar, temp, tembr, qo'shma gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

Zamovaniy tilshunoslikda ohang jonli nutqning eng zaruriy qismi sifatida turli vazifalarni bajarishga xoslangan muhim vosita ekanligini isbotlovchi turli tadqiqotlarning guvohi bo'lish mumkin. Haqiqatda, ohang nutqiy muloqotning paydo bo'lishiga sabab bo'luchchi asosiy maqsad – axborot almashish (kommunikativ vazifa)dan tortib muloqotga kirishuvchilarining nutqiy jarayondagi turli oniy hamda individual xususiyatlari – ruhiy, hissiy, jismoniy holati, yoshi, jinsi, millati, madaniyati, kasbi yo hunariga oid belgilarini aks ettira oladigan (emotsional-ekspressiv vazifasi) ko'p qirrali lisoniy noverbal hodisadir. Ohangning bu belgilarini badiiy asar qahramonlari nutqini kuzatish orqali yaqqol ko'rish mumkin.

Masalan, Gapingiz to'g'ri. Sharoit zo'r. Xohlagan qing'irliliklarga shart-sharoit mixday yaratilgan, buni biz bilamiz, — Omonullo «biz» degan so'zni alohida urg'u bilan talaffuz etdi. Bu **alohida ohang** boshliqning miyasiga to'qmoqdek urilib, bir seskandi. Lekin o'zini go'llikka solib, xi-xilab kuldil: — Iye, hali shunaqalar ham bormi? Qing'irlikdan Xudo asrasin. Hukumat shuncha sharoit yaratib bergeniga shukur qilib to'g'ri ishlaganga nima yetsin! <sup>1</sup>

Omonulloning nutqidagi ma'noni va diskursiv maqsadni to'la ifodalash uchun "biz"ni ta'kidlayotgan "alohida ohang" zarur edi. Chunki qahramon faqat o'zi emas, uning ortida turgan militsiya vakillarini nazarda tutayotgan edi. "Boshliq"ning bir seskanishida ana shu "alohida ohang"ning ortida turgan ma'nodan qo'rqlik hissi sezilib turardi. Demak, agar shu ohang bo'lmasa, Omonullo nutqidagi maqsadni ochiq ifodalay olmas va boshliqqa bu qadar ta'sir o'tkaza olmas edi.

Nutq ohangining tezlik, davomiylilik, izchilllik, ko'tarilish yoki tushish kabi o'zaro bog'liq komponentlarining birligi – bu intonatsiya bo'lib, tilning prosodik tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Boshqa til birlıklaridan farqli ravishda u gapni shakllantirishdan tashqari nutqning ifodalaydigan ma'nosini ham shakllantirishga qodir noverbal prosodik birlikdir.

Frazaviy urg'u – intonatsiyaning eng muhim vazifalaridan birini bajaruvchi asosiy komponenti bo'lib, jumla ohangining o'zgarishini, nutq maqsadiga xoslanishini ta'minlaydi. Masalan, so'roq gaplarda jumlaning so'zlovchini eng qiziqtiradigan, diqqat markazidagi so'z yoki birikmasini ajratishda frazaviy urg'udan foydalanalidi: Kecha Komila keldi? yoki Kecha Komila keldi?

Rus tilshunosligida intonatsiyaning semantik (jumlaning nutq maqsadiga ko'ra xoslanishi); ekspressiv (nutqning so'zlovchi his-tuyg'ularidan kelib chiqib xoslanishi); sintaktik (jumlaning lisoniy sintaktik birlıklarining xosligini ifodalovchi ); evfonik (nutq ohangining nutq maqsadiga qarab kuchli-kuchsizligi, davomiyligi) kabi vazifalari sanab o'tiladi.

XX asrning o'rtalariga qadar rus tilshunosligida sintaktis va ohangning aloqadorligiga qiziqish natijasida intonatsiya va uning komponetlarining vazifasini aniqlashga urinishlar ko'paydi. Bu izlanishlarning samarasi o'laroq E.A. Brizgunova tomonidan 1960-yillarda rus tilining o'ziga xos

<sup>1</sup> Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. 77-bet uzsmart.uz



intonatsiyasi tadqiq qilindi va nutqda intonatsion konstruksiyalarni tavsif qilishni taklif qildi. Natijada rus tilining nutqiy intonatsiyasiga xos bo‘lgan yettida intonatsion konstruksiya (IK) ishlab chiqildi. Bu konstruksiyalar bugungi kunga qadar amal qilyapti.

Tillarning o‘ziga xosliklarini inobatga olsak, intonatsiya ham turli tillarda turlichadir. Chet tilini o‘rganuvchilarda aynan yangi nutq ohangiga moslashish qiyinligini kuzatish mumkin. Nutq jarayonida so‘zlovchining g‘azabi, nafrati, mehr-muhabbati, hazil yoki istehzosi intonatsiyasida ifodalanadi. Yangi til o‘rganuvchilarda shu ifodalarni to‘g‘ri tushuna olmaslik yoki nutq jarayoniga to‘g‘ri tatbiq qila olmaslik holati ko‘p uchraydi. Demak, bundan kelib chiqadiki, intonatsiya – ma’lum bir tilning eng xarakterli fonetik xususiyati.

Intonatsiyaning eng keng tarqalgan vazifasi kommunikativ fazifasidir. Tilning intonatsion tizimi grammatikaga qaraganda ancha harakatchanligi bilan ajralib turishi sababli, intonatsiya muloqot maqsadlariga bevosita javob berish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega. Gapning ma’nosi va intonatsiyasi o‘rtasidagi eng yaqin bog‘liqlik uni muloqotning muhim omillaridan biriga aylantiradi. Intonatsiya orqali aytilgan so‘z to‘liq yoki to‘liq emasligini, unda savol, javob va hokazo borligini bilib olish mumkin.

Gapning tegishli grammatik tuzilishi va leksik tarkibi bilan birlashtirilgan intonatsiya talaffuz ma’nosini ifodalashning muhim vositasidir. Chet el tilshunoslari tadqiqotlarida intonatsiyaning subyektiv hodisa ekanligi, har xil so‘zlovchilar bir xil matnni boshqacha o‘qishlari mumkinligi haqidagi fikrni ta’kidlab kelishadi. Haqiqatda, jumla birliklarini o‘qishdagi farq juda muhim bo‘lishi mumkin. Chunki har xil o‘qish matnda ifodalangan ma’noning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Bitta matnning turlicha intonatsiyasi – uni har xil o‘quvchilarning turlicha tushunishi natijasidir. Xuddi shu jumlan turli intonatsiyalar bilan talaffuz qilish mumkin. Va har safar nutqning intonatsiyasi biroz boshqacha ma’no kasb etaverishi mumkin.<sup>2</sup>

Ohang va intonatsiyaning yuqoridagi vazifalarini sanar ekanmiz, uning tilshunoslikning sintaktik birliklarini hosil qilishdagi o‘rniga to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik.

Gap – kishilarning bir-biriga fikr, axborot uztish uchun ishlataligida asosiy birlik, fikr ifodalashning eng oddiy ko‘rinishi. U so‘zlovchi uchun axborot uzatish, tinglovchi uchun ma’lumot, axborot olish vositasi.

Inson tafakkurida fikrlar jamlanmasi tushunchalar orqali yuzaga kelib, nutqda esa fikr holida ifodalanadi. Gap esa shu fikrlar va tushunchalarni axborot shaklida yetkazish uchun so‘z, so‘z birikmalar va grammatik shakllar yordamida hosil bo‘ladi.

Gap turli omillar vositasida yuzaga keladi, shunday omillardan biri gap ohangining gap shakllanishida o‘rni katta. Gapning muhim belgilardan biri – tugallangan ohangga ega bo‘lishi.

Gapning fikriy va sintaktik tugalligi ohang jihatidan ham tugallik va yaxlitlikni taqozo qiladi: tugallangan ohang fikrning va sintaktik qurilishining tugalligini bildirib turadi. Zero, gap va gap bo‘lmagan nutqiy hodisalarning muhim farqlaridan biri ham tugal bo‘lmagan ohangga ega bo‘lishidir. Ohang nafaqat gapning tugallanganligini, balki gapning turli tipini belgilashda ham muhim. Demak, ma’lum bo‘ladiki, so‘zning atov birligimi yoki gapmi, gap bo‘lsa, qanday tabiatga ega ekanligini nutqda faqat ohang ko‘rsatadi. Bundan tashqari gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini belgilashda boshqa omillarning ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin, ammo fonetik omil – ohang bo‘lishi shart.

Gap bo‘laklari orasidagi munosabatni ko‘rsatishda ham ohang muhim o‘rin tutadi. Men – men, sen – sen gaplarida gap bo‘laklari (ega – kesim)ni farqlashda va ular orasidagi munosabatni ko‘rsatishda ohang hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Gapni tashkil qiluvchi so‘z birikmalaridan biri – bitishuvli birikmalarning o‘zaro aloqasida ham, asosa, tartib va ohang bilan belgilanadi. Bunday aloqada ohang birikma a’zosining tobelligini ko‘rsatuvchi omil sifatida gavdalananadi.

<sup>2</sup> Пронникова Н.В. К ВОПРОСУ О ФУНКЦИЯХ ИНТОНАЦИИ. ФГБОУ ВПО «Марийский государственный университет» Фундаментальные исследования. (Журнал) – 2014. – № 9 (часть 5) – С. 1131-1135.



Gapning tuzilish va mazmun jihatidan birlashgan parchalari nutq jarayonida qisqa to‘xtam (pauza) bilan ajratiladi. Bunday parchalar sindagma deb atalib, ularni ajratayotgan pauza ham nutq ohangining bir ko‘rinishidir. Sintagma – grammatik-semantik jihatidan yaxlitlangan fonetik butunlik bo‘lib, bir havo zarbi bilan aytildi.

Sintagma tarkibi bitta so‘z yoki bir nechta so‘z bo‘lishi ham mumkin. Sintagmalar so‘zlovchining maqsadidan kelib chiqib turlicha bo‘ladi, ya’ni har bir inson bitta gapni turlicha aytishi mumkin. Bu ularning nutq maqsadidan kelib chiqadi.

Ohang qo‘shma gap tarkibiy qismlarini bog`lashda ham namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha, u grammatic vosita o‘rnini bosish darajasiga ko‘tariladi. Biz ishonamiz – ko‘nglimiz to‘q. Bunda ohang ergashtiruvchi bog`lovchi vazifasida qo‘llangan<sup>3</sup>.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, ohang va uning tarkibiy qismlari tilda ko‘plab muhim vazifalarni bajaradi. Shular qatoriga bog`lovchilik xususiyatini ham kirlitsak bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduzuhur Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2010. 178 bet, 22-bet.
2. Haydarov A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDu ilmiy axborothnomasi. 2006, 69-72-b.
3. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fanetikasi. – T: “Fan”, 2009. 224 b.
4. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т.: “Ўқитувчи”, 1985. 104 б.
5. Пронникова Н.В. К вопросу о функциях интонации. ФГБОУ ВПО «Марийский государственный университет» Фундаментальные исследования. (Журнал) – 2014. – № 9 (часть 5) – С. 1131-1135.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T. – 2009. 324-329-betlar. [www.ziyozuz.com.kutubxonasi](http://www.ziyozuz.com.kutubxonasi).
7. Торсуева И. Г., Интонация и смысл высказывания. – М., 1979.
8. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. 77-bet uzsmart.uz

<sup>3</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T. – 2009. 324-329-betlar. [www.ziyozuz.com.kutubxonasi](http://www.ziyozuz.com.kutubxonasi).